

Zangiota ziyoratgohida

2021-yilning 4-aprel Talabalar turar joyi talabalari TTJ direktori I.Buxorov Talabalar turar joylari kengashi raisi Saidahmedov Jahongir, "Gidromelioratsiya" fakulteti yoshlar yetakchisi A'lobek Xamidovlar boshchiligidagi Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan Zangiota ziyoratgohiga ziyorat uchun tashrif buyurdilar.



Zangiota hazratlari Markaziy Osiyo mintaqasida IX-XII asrlarda yuz bergan birinchi ilmiy-madaniy yuksalish, ya'ni ilk Sharq Uyg'onish davrining namoyandasini, o'z zamonda hikmat va ma'naviyat, din va tasavvuf rivojiga katta hissa qo'shgan mutasavvuf va avliyo bobolarimizdandir. Necha yuz yillardan buyon Zangi ota shaxsiga bo'lgan qiziqish susaymagan, aksincha, ortib bormoqda.



Talabalar turar joyi talabalari Ramazon oyi kelishi arafasida ezgu tilaklar, duolar qilib Zangiota ziyoratgohidan ziyorat qilib qaytdilar. Muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish uchun yoshlarni qo'llab-quvvatlaganlari uchun institutimiz rahbariyatiga talabalar o'z minnatdorchiligini bildirishdi.

Talabalar turar joylari kengashi raisi Saidahmedov Jahongir axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati